

KASBIY FAOLIYATDA JAMOANING O'RNI VA ROLI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Ahmadaliyeva Dilnoza Bahtiyorjon qizi

TTA "Tibbiy biologiya" fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola kasbiy faoliyat jarayonida jamoaning o'rni va rolini ochib berishga qaratilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Jamoa, eksteriorizatsiya, faoliyat, sub'ektiv, ob'ektiv, pedagog, talaka, ko'nikma, talakalar induksiyasi*

Аннотация: *Данная статья направлена на раскрытие места и роли коллектива в процессе профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *команда, экстериоризация, деятельность, субъективное, объективное, педагогическое, компетентность, умение, индукция компетентности.*

Annotation: *This article aims to reveal the place and role of the team in the process of professional activity.*

Key words: *team, exteriorization, activity, subjective, objective, pedagogical, competence, skill, competence induction.*

Inson tabiatan faol mavjudoddir. U ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatidir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. Har bir tirik organizimning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo'ladi. Anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan tabiiy yoki, madaniy ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar odamda har turli faollik tug'diradi.

Ma'lumki, inson faoliyati jarayonida ma'lum bir mahsulotlarni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi. Aynan faoliyatda erishilayotgan muvaffaqiyatni ta'minlovchi bir qator omillar mavjud. Shular jumlasiga ob'ektiv va sub'ektiv omillarni ham kiritish mumkin.

Agar hayvonlarni xatti-harakati bevosita tevarak-atrofdagi muhit bilan belgilansa, odamning faolligi esa ilk yoshlik davridan boshlab, butun insoniyatning tajribasi va jamiyat talabi bilan boshqariladi. Shu bois "faoliyat", xatti-harakat tushunchalari mazmun mohiyatini anglab olish lozim. Ma'lumki insonni ichki dunyosi paydo bo'ganidan so'ng har bir narsani, har bir harakatni oldindan ichidan o'ylab so'ngra amalga oshiradi. Oldin ichidan o'ylab, so'ngra bevosita tashqi munosabatga o'tish faoliyatning eksteriorizatsiyasi deb ataladi.

Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy va psixik tuzilmalari bir-biri bilan uyg'unlashgani ko'zga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallatigan sa'y - harakatlar ichki psixik jihatiga bog'liq bo'lib, ulami motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek tashqi jabha o'z navbatida a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatini o'zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o'zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o'xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko'rsatadi; g) ulami uzluksiz ravishda yo'naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi yaqqol faoliyatini ham ichki (psixik) faoliyatning eksteriorizasiyalashuvga aylanishi deb baholash maqsadga muvofiq. Faoliyat - insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z -o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligidir. Faoliyat - inson hayotining uning voqelikka nisbatan faol munosabatining ro'yobga chiqish shakli. harakat - maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi ongli faoliyat tarkib

Biz ko'z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o'sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. Bolalar bilan bo'lgan damlarimiz esda qolishi, xotiramizda undan iz qolishi, muloqot uslubiga bog'liq. Pedagog kommunikativ muloqotining mahsuldor bo'lishi uchun pedagogik ta'sir kuchining tizimlarini, uning har bir qismini bilishi zarur. Dars jarayonida o'qituvchi qaysi usulni qo'llayotganini doimo eslab turishi kerak. Buning uchun pedagog ikkita muhim muammoni hisobga olishi: — o'zining xatti-harakatini to'g'ri tashkillashtirishi; — kommunikativ ta'sir samaradorligini ta'minlashi zarur. Pedagogik faoliyat jarayonidagi muloqotni quyidagicha tavsiflash mumkin: 1) o'quvchi va pedagog muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli); 2) pedagogik faoliyatning aniq bosqichi uchun xos bo'lgan muloqot tizimi; 3) aniq pedagogik va kommunikativ masalalarni yechishda namoyon bo'ladigan muloqotning vaziyatli tizimi. Pedagog va ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik ta'sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushunish mumkin: a) pedagogning kommunikativ imkoniyatlari; b) pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar tabiati; d) pedagogning ijodiy individualligi; e) o'quvchilar jamoasining xususiyatlari (Kan — Kalik). Muloqot uslublariga quyidagilar kiradi: 1. Hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot. 2. Do'stona munosabatlar asosidagi muloqot. 3. Masofadan turib muloqotga kirishish. 4. Qo'rqitish (qo'rquv) asosidagi muloqot. 5. Soxta obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot. Birinchi uslub asosini pedagogning yuqori kasb etikasi (axloqi) tashkil etadi. Bu uslub haqida M.O. Knebel, I.P. Volkov, V.F. Shatalovlar o'z fikrlarini bildirganlar. Ularning fikricha, bolalar bilan bo'ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu uslub asosida shakllanadi. Ikkinchi uslub asosan do'stona munosabatlar, o'quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do'stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta'minlaydi. Maroqlilik bilan do'stona munosabat birgalikda rivojlanadi. Pedagog bir tomondan bolalar uchun yaqin o'rtoq, ikkinchi tomondan birgalikdagi faoliyat qatnashchisi bo'lishi lozim. Uchinchi uslub, ya'ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilan o'quvchi

o'rtasida muayyan masofa bo'lishi kerak. Masofa juda uzoq bo'lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik kuchayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro'-e'tibori ortadi. To'rtinchi uslub — qo'rqitish asosidagi muloqot bo'lib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba'zi pedagoglar o'quvchilarni qo'rqitish orqali muloqotda bo'ladilar. Chunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Ayniqsa, katta auditoriyada ma'ruza o'qiydigan ma'ruzachilar auditoriyani shu uslub asosida boshqaradilar. Juda qattiq turib, tinglovchilarni qo'rqitib pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshiraman, deb hisoblovchilar yanglishadi. Bu o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladi. Beshinchi uslub — soxta obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo'lib, yosh o'qituvchilar malakasi yetarli bo'lmagani uchun yolg'on ishlatadilar. Bu bilan o'qituvchi o'quvchi bilan tezroq muloqotda bo'lib olishga harakat qiladi. Bunday usulni qo'llaydigan pedagogda umumiy pedagogik va kommunikativ madaniyat yetishmaydi. Demak, pedagoglarning fikricha, birinchi va ikkinchi uslub asosida muloqotga kirishishigina yaxshi natijalarga olib keladi. Narsalar bilan qilinadigan ish-harakatdan tashqari, odamning faoliyatini badanning ma'lum vaziyatini va qiyofasini saqlab turishni ta'minlaydigan harakatlar, organizmning bir joyidan ikkinchi joyiga o'rin almashtirishi, kommunikatsiyani ta'minlaydigan harakatlar, ifodali harakatlar va nutq harakatlari mavjud.

Narsalar bilan qilinadigan ishlarni bajarish ma'lum tizimdagi harakatlarni amalga oshirishdan iborat. Harakatlar tizimi va maqsadi bilan, bu maqsad yo'naltirilgan narsalar xususiyati va ish sharoiti bilan bog'liqdir. Masalan, stakan va qalamni olish, piyoda va chang'ida yurish, og'ir va yengil narsani boshqa joyga olib qo'yish, mayda va katta mixni qoqish, gantel va shtangani ko'tarish, harakatlari bir-biridan farq qiladi.

Harakatning boshqarilishi va uning natijalarini erishiladigan pirovard maqsad, taqqoslash yo'li bilan doim nazorat qilib boriladi va to'ldirib turiladi. Unday nazorat sezgi a'zolari yordami bilan erishilishi mumkin bo'lgan narsalar tashkil etadi. Demak, maqsad miyada, kelajakdagi faoliyat natijasida, tilakdagi kelajak modeli bilan ishning mazkur natijalari taqqoslanadi, xuddi ana shu ishning qay yo'sinda bo'lishi boshqariladi.

Harakatlarning istagan bir tomonlarini ularning motor, sensor va markaziy tarkibiy qismlari deb atash mumkin. Ishni amalga oshirishda bajaradigan vazifalariga muvofiq, ular ishni ijro qiluvchi, boshqaruvchi deb belgilanishi mumkin. Bu vazifalarning har birini kishi ongli va ongsiz ravishda bajarishi mumkin. Odam talaffuz qilmoqchi bo'lgan gapning grammatik shakli va mazmuni hamisha ong yordamida oldindan payqab olinadi. Odatda, ishdan ko'zlangan maqsad va shuning bilan birga ishning umumiy xarakteri hamma vaqt anglab olinadi. Masalan, velosipedda ketayotgan odam mutlaqo ongsizlik holatida buning uddasidan chiqa olmaydi.

Bajariladigan harakatning ma'lum tomonlari dastavval to'la anglab boshqarishni talab qilinadi, undan keyin ishning bajarilishi ongning ishtirokini borgan sari kamroq talab qiladi. Bunday hollarda ishning bajarilishi avtomatlashadi. Odamdagi maqsadga muvofiq harakatlarning amalga oshirilishi va avtomatlashuvi malaka deb aytiladi. Ishning tuzilishi shunday qisman avtomatlashuvi tufayli o'zgarish imkoniyati quyidagidan iborat:

1. Harakatlarni ijro qilish usullarining o'zgarishi. Bundan avval har biri alohida-alohida bajarilgan ayrim harakatlar bir butun harakat tarkibidagi oddiy harakatlar o'rtasida hech qanday "to'xtab qolish" va tanaffuslar bo'lmaydigan bitta yaxlit aktga aylanadi. Masalan, kotibaning o'rganayotgan haydovchi, yozishni o'rganayotgan bola harakatini ko'rish mumkin.

2. Ishni bajarishda sensor, ya'ni hissiy nazorat usullarining o'zgarishi. Ishni bajarish ustidan qilinadigan ko'rish nazorati ko'p jihatdan muskul nazorat bilan almashinadi. Masalan, mashinistkaning xat yozishdagi, haydovchi motor ovozidagi, po'lat quyuvchi metal rangining o'zgarishini farq qiladi.

3. Ish-harakat markaziy boshqaruvchi usullarining o'zgarishi. Diqqat ish-harakatining usullarini idrok qilishdan ozod bo'ladi va asosan ish-amalning hamda natijalarni idrok qilishga qaratiladi. Ayrim hisoblash, qarorga kelish va boshqa intellektual operatsiyalar tez va birlashgan holda "intuitiv" bajarila boshlaydi.

Malaka faoliyat tarkibida o'ziga xos o'rin tutadi. Malaka deb mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullariga aytiladi. Malaka ish unumdorligining ortishiga, vaqtni tejashga, aqliy faoliyatni bir muncha muhimroq narsalarga safarbar qilishga imkon beradi. Malaka quyidagicha hosil qilinadi:

- a) mehnat harakatlari, ularni egallab olishning zarur ekanligi va ahamiyatini anglash;
- b) harakat namunasini esda olib qolish;
- v) malaka namunalari ko'p marta bajarish, mashq qilish;
- g) izchillik bilan olib boriladigan mashq natijasida harakatlar tezlashadi, xatolar kamayadi;
- d) malaka harakatlarni avtomatlashtirish bilan shakllanadi. Ayrim ortiqcha harakat elementlari tushib qoladi.

Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlardan va malakalardan foydalana olish k o' n i k m a deyiladi.

Malaka turli yo'llar bilan ko'rsatish, tushuntirish, ko'rsatish va tushuntirishni qo'shib olib borish orqali hosil qilinishi mumkin.

Har bir ko'nikma va malaka odamning o'z tajribasida avval egallab olgan malakalari asosida yuzaga keladi va amal qiladi. Malaka, ko'nikmalarning ayrimlari kishining ko'nikma hosil qilishiga va malakali ishlashiga yordam beradi, boshqa birlari halaqit beradi, uchinchilari, yangi ko'nikmalarni o'zgartirib boradi. Bu hodisa psixologiyada malakalarning o'zaro ta'siri deyiladi.

Avval hosil qilingan malakalarning yangi malakalarga ijobiy ta'siri malakalarning ko'chishi yoki malakalar induksiyasi deb ataladi. Masalan, matematika darsida hosil bo'lgan ko'nikmani, fizikada qo'llash mumkin.

Faoliyatning yana bir qismi odat bo'lib, ko'nikma malakalardan hech qanday samara yoki natijaga ega emasligi bilan ajralib turadi. Odatda odam tomonidan beixtiyor, ongsiz tarzda muayyan maqsadga yo'naltirilmagan holda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda odatlar

shaxs tomonidan nazorat qilinishi mumkin, lekin har doim ham aqlli va kerakli harakatlar bo'lmashligi mumkin.

XULOSA

Kasbiy faoliyat jarayonida guruh bo'lib ishlashning afzalliklari juda ko'p. Faoliyat jarayonida turli qarorlarni qabul qilish, turli yangiliklar yaratish, izlanish, jamoa bo'lib harakat qilish samara beradi. Kasbiy faoliytda jamoaning har bir a'zosining fikrini qollab quvvatlash kerak. Ular bir-biridan malaka, ko'nikma, tajriba va eng muhimi mehr va ishonch topadilar. Kishi dunyoga kelar ekan doim o'z oldiga ozmi ko'pmi maqsadlar qo'yadi. Bu maqsadlarga erishish uchun tinmasdan harakat qiladi. Har bir inson hayotda yaxshi yashashga intiladi va bu yo'lda ko'plab sinovlarni bosib o'tadi. Faoliyat yuritadi, kasb tanlaydi va bu kasbning yetuk mutaxassisi bolib yetishadi. Jamoa bo'lib ishlaganda ulardan chiqadigan fikr yangiliklar qo'llab quvvatlashlar ularni yanada olg'a qadam tashlashga undaydi. Do'stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta'minlaydi. Maroqlilik bilan do'stona munosabat birgalikda rivojlanadi. Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy va psixik tuzilmalari bir-biri bilan uyg'unlashgani kozga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishga m o'ljallatigan sa'i - harakatlar ichki psixik jihatiga bog'liq bo'lib, ulami motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.
2. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2017y.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
4. R.N.Melibayeva. "Bilish jarayonlari" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.
5. R.N.Melibayeva. Talabalar tafakkurini amaliy o'rganish va rivojlantirish usullari, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.
6. Sharapova D.B. [UY BEKALARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI](#) O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2022, 219-225b.